

JARIMA JAZOSINI IJRO ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Irnazarov Shuxrat

TerDU Yuridik fakulteti o'qituvchisi

Islomov Egamshukur

TerDU Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: jazolarning kelib chiqish tarixi, jazo turlari, jarima jazosining ahamiyati, jarima jazosining qo'llanilish asoslari, jarima jazosini ijo etish, jarima jazosini ijo etish tartibi, vayaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan jarima jazosi, Jarimani to'lamaslik oqibatlari, jarima jazosining ijrosini davlat ijrochisiga qaratish, mol-mulkni musodara qilish, Jarima jazosini ijo etmaslikning boshqa huquqiy oqibatlari, jarima jazo bo'yicha xorijiy tajriba va boshqa holatlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qonun, insonparvarlik prinsipi, Xammurapi qonunlari, tosh stela, Manu qonunlar, jinoyat, jarima, mol-mulkni musodara qilish, davlat ijrochisi, bo'lib-bo'lib to'lash, yuridik shaxs, korrupsiya, oilaviy zo'ravonlik va boshqalar.

Kirish: Jarima jazosi bugungi kunda barcha yuridik va jismoniy shaxslarga shu bilan birga chet el fuqorolari va yuridik shaxslariga ham eng maqbul jazo turidir. Jarima jazosining huquqiy obibati unchalik o'g'ir hisoblanmaydi va mahkumlar bu jazo turini jamiyatdan ajralmagan holatda va oila a'zolarining yonida o'taydi. Agarda jarima jazosi asosiy jazo sifatida tayinlanganda huquqiy oqibati og'ir bo'ladi. Birinchi navbatda, ayblanuvchining oila a'zolarga qiyinchilik keltirib chiqarishi mumkin. Agarda ayblanuvchi sud belgilagan muddatlarda jazosini ijo etmasa, to'g'ridan-to'g'ri uning ijrosi davlat ijrochisining ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu esa jarima to'lovchining mol-mulkining musodara qilinishiga olib keladi. Ushbu holat jarima jazosini ijo etayotgan shaxsning oila a'zolarida ayrim ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin va xattoki bu holat inson psixologiyasidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Xattoki, bundan ham og'ir jinoyatlarini keltirib chiqarishi mumkin va davlatimizning jinoyatlar reytingi bo'yicha ko'rsatkichi oshib ketishiga olib kelishi va shu bilan birga, jazoni ijo etish muassasalarda mahkumlar sonining ortib ketishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, davlatimizning mahkumlarning moddiy ta'minoti masalalarda turli muammolarga yetaklaydi.

Bugungi evalutsion bir davrda bizning mamlakatimizda ushbu jazoning o'rni katta va jamiyatimizning barcha qatlamdagi a'zolari uchun mos jazo turidir.

Asosiy qism: Eng avvalo hozirgi kundagi jazo, tushunchasi, turlari va ularning qo'llanilish tartibini o'rganishdan oldin ularning tarixiga biroz bo'lsa ham nazar tashlasak. Qadim-qadimdan olib qaraydigan bo'lsak, qadimgi Babil podsholigi

(Miloddav avvalgi XVII asr) hukmronlik qilgan davrga nazar tashlaylik. Hammurapi, o'z hukmronligi davrida barcha fuqorolar uchun majburiy bo'lgan unutilmas qonunlar yaratgan va uni jamiyatda bevosita amaga oshirgan. Unutilmas deyishimizdan asosiy maqsad, uning davrida yaratilgan qonunlarni biz yoshlar hozirgi kungacha tilga olamiz. Shuning uchun ham Hammurapi tarixda "Qonun yaratuvchi birinchi hukumdor" nomi bilan tilga olinadi. Uning qonunlardan bazi misollar keltiradigan bo'lsak, qimmatbaho buyumlar o'g'irlaganligi uchun-so'zsiz o'lim, qotillik uchun-o'lim, oilaviy nizolar bo'yicha, zino qilgan er va ayol-o'limga hukm qilingan va etibor bering, jarroh operatsiyada bemorni o'ldirsa –uning qo'li kesilgan va boshqa jinoyatlarini aytib o'tishimiz mumkin. Hukumdor Hammurapi qonunlari balandligi 2.25 metr bo'lgan tosh stelaga o'yib yozilgan va bu qonun 282 ta moddadan iborat bo'lgan. Qadimgi davrlarda jazo qo'llashdan asosiy maqsad, jamiyatda tartibni saqlash, kambag'alni boydan himoya qilish, ayollarni bolalarni va qullarni huquqini taminlashdan iborat bo'lgan. Ammo qadimgi Hindiston posholigida esa sal farq qilgan, bu yerda o'z navbatida jazolarni qo'llashda asosiy etibor jazolanuvchining tabaqasiga bog'liq bo'lgan. Yani jazo berishda past tabaqali shaxslarga og'irlashtiruvchi jazo qo'llanilgan bo'lsa, yuqori tabaqali shaxslarga esa birmuncha yengillashtiruvchi jazollar tayinlanganligini tarixiy manbalardan ko'rishimiz mumkin. Qadimgi Hindiston o'sha davrda "Manu qonunlari" muhim rol o'ynagan. Hindiston davlatida bu eskidan qolgan tabaqalashtirish siyosati haligacha davom etib kelmoqda. Qadimgi Misr davlatida jazo qo'llashda diniy tamoyillarga asoslangan. Davrlar o'tishi bilan insoniyatning jamiyatdagi qadri oshib borganligi va boshqa tabaqa vakillarining ham insonga ehtiyoji ortganligi natijasida bunaqangi og'ir jazo turlari yengilroqlari bilan almashtirildi. Misol uchun: O'lim jazosi oqibatida ko'pgina shaxslarning qirilib ketishining oldini olish maqsadida quldorlik siyostining olib borilishi va qullardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi, ularni boshqa quldorlarga daromad maqsadida sotishi va boshqa holatlar o'rta asrlarning oxirigacha saqlanib qolgan. Yana ko'pgina misollarni keltirishimiz mumkin. Tarix-bu o'tmish demakdir, o'sha vaqtlarda diplomatik aloqalar juda kam bo'lgan, bundan tashqari inson qadri sariq chaqaga ham ilinmagan. Bu o'z navbatida, barcha xalqaro huquq subektlari bo'lgan qirolliklar aristokratlar (zodogonlar) qo'lida bo'lgan. Ular esa tinch aholini bilgan ko'yiga solgan.

Bugungi kunda jazolarning turlari har bir mustaqil davlatlarda har xildir. Bizning mamlakatimiz qonunchiligiga etibor bersak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining X-bobida jazo tushunchasi, maqsadi va turlari batafsil yoritilgan. Ushbu bobning 43-moddasida jazo tushunchasi va maqsadi keltirib o'tilgan, unga ko'ra jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladi va u shaxsning jamiyatda mavjud bo'lgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki cheklashni nazarda

tutuvchi majburlov chorasidir. Asosiy maqsadi-mahkumni axloqan tuzatish, takroran jinoyat sodir etilishining oldini olish va jamiyatdagi boshqa shaxslarining jinoyatlarni sodir etilishining oldini olishga qaratilgan. Ushbu kodeksning 44-moddasiga qaraydigan bo'lsak unda jamiyatda qo'llaniladigan jazo turlari keltirib o'tigan. Jazo turlariga quydagilar kiradi: jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuztish ishlari, ozodlikdan cheklash, ozodlikdan mahrum qilish, umurbot ozodlikdan mahrum qilish va bundan tashqari xarbiy xizmatchilarga nisbatan xizmat bo'yicha cheklash, intizomiy qismga jo'natish va xarbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish kabi jazolar qo'llaniladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ham asosiy ham qo'shimcha jazo sifatida tayinlanishi mumkin. Jarima jazosiga to'xtalsak, jarima jinoyat va iqtisodiy sohadagi jinoyat ishlari bo'yicha jazo tariqasida, ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'rniga keng qo'llanilib kelinadi. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil avgust oyida ishlab chiqilgan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risi"dagi qonunga muvofiq, jinoyat huquqining insonparvarlik prinsipiga zid bo'lgan mol-mulkni musodara qilish to'g'risidagi jazo turi olib tashlandi va shu bilan birga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni ayblanuvchilar tomonidan qoplangan hollarda unga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlash to'g'risidagi qoidalar kiritilishi mamlakatimizning xalqaro darajadagi reytingining ko'tarilishiga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan jamiyatda inson rolining oshganligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 44-moddasida jarima jazosiga quyidagicha ta'rif berilgan, jarima aybdordan davlat daromadiga undiriladigan pul mablag'i va jarimaning miqdorini belgilanishda toifalarga ajratilganligi ko'rsatilgan, yani, voyaga yetmaganlarga nisbatan bazviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha qilib belgilangan, voyaga yetganlarga nisbatan esa bu miqdor farq qiladi yani ularga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan olti yuz baravarigacha qilib belgilangan. Yana bir istisno holat mavjud, voyaga yetmaganlarga nisbatan jarima jazosi tayinlanayotganda uning mustaqil oylik ish haqiga etibor beriladi. Agarda oylik ish haqi mavjud bo'lmasa voyaga yetmaganlarga jazoning bunday turi qo'llanilmaydi. Jarima jazosining ijro etilish muddatlari sud tomonidan belgilanadi. Uning ijro etilishida ham farqli holatlar keltirilgan yani sud tayinlagan jarima jazosini ijro etish muddati bir oy qilib belgilangan biroq voyaga yetmaganlarga bu muddat olti oydir. Ushbu muddatlar mahkumning iltimosiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 533-moddasi 2-qismiga asosan olti oyga uzaytirilshi yoki bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha sud ajrim chiqaradi. Albatta sud mahkumning moddiy ahvolini o'rganib chiqqandan so'ng ajrim chiqaradi. Sud o'rganadigan holatlarga mahkumning oylik maoshi, daromadining

yetishmasligi, oilaviy sharoitining og'irligi, qaramog'ida boquvchisining ko'pligi, uning kasal bo'lib qolgan muddatlari va boshqalardir. Mahkum ajrimni o'z vaqtida to'lamadi sudning ajrimiga asosan berilgan muddatlarda ham to'lashning imkoni bo'lmaganda sud jarimani undirishni davlat ijrochisiga qaratadi. Bularning hammasi bevosita amaliyotda bo'ladigan va uchraydigan holatlar, mahkumning jarimani to'lashga yetarli mol-mulki mavjud bo'lmasa, sud jarimaning to'lanmagan qismi bo'yicha mahkumga majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikdan cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar bilan almashtiradi. Bunday vaziyatlarda, majburiy jamoat ishlarining ikki yarim soati bazaviy hisoblash miqdorining bir baravariga tenglashtirilib to'rt yuz sakson soatdan ko'p bo'lmagan miqdorda majburiy jamoat ishlari jazosi tayinlanadi. Axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikdan cheklash va ozodlikdan mahrum qilish to'risidagi jazolarning bir oyi bazaviy hisoblash miqdorining o'n olti baravari miqdorida qilib belgilangan va jarima jazosi yuqorida keltirib o'tilgan jazo turlariga uch yildan ortiq bo'lmagan miqdorga almashtirilib jazo o'tatiriladi.

Xorij tajribasiga etibor bering, biz bilamizki korrupsiyadan holi mamlakat sifatida tan olingan va xalqaro miqyosda yetakchi o'rinlarda turgan Singapur davlatida jarima jazolarni qo'llash o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan. Deyarli bu mamlakat ushbu jazo orqali jamiyatda belgilangan tartiblarni muntazam va bir xilda ishlashini saqlab turadi. Birgina sigaret chekish, olib yurish va saqlash umuman taqiqlangan. Sigaret (elektron sigaretlar) va tamaki mahsulotlarni saqlash va olib yurish Singapur dollarida 2000, endi uni sotish va mamlakat hududiga olib kirish 1000 dollar jarima jazosi belgilangan. AQSH qonunchilik siyosatiga qaraydigan bo'lsak, AQSHning Jinoyat kodeksi 18-bo'lim 1853-modasiga muvofiq daraxtlarni kesganlik va boshqacha harakatlar bilan ekologik tabiiy muhitga zarar yetkazish jarima jazosidan tashqari ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha qo'llanilishi takidlab o'tilgan va bundan tashqari AQSHda mualliflik huquqini buzganlik uchun 250 ming dollar hisobida jarima jazosini keltirib chiqaradi. Jarima jazosini vaqtida to'lamaslik fuqarolarning kredit reytingiga, ishga kirishdagi uchraydigan muomalar va bazi shtatlarda esa xaydovchilik guvohnomasining bloklanishiga ham olib kelishi mumkin. Jahonning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Fransiyaning shaharsozlik kodeksining L480-4 moddasiga ko'ra, bino va inshootlar qurish maqsadida daraxtlarni kesib foydalangan taqdirda ushbu qurilgan binoning har bir kvadrati uchun 6 ming yevrogacha jarima jazosini qo'llanilishiga olib keladi. Jarima jazosini o'tash tartiblari haqida ham to'xtaladigan bo'lsak, misol uchun Germaniyada jarima jazosini belgilash shaxsning kunlik daromadiga qarab va buning muddati 5 kundan 360 kungacha qilib belgilangan. Agarda jazo o'z vaqtida to'lamasa, majburiy jamoat ishlariga yoki qamoq jazosi bilan almashtiriladi. Shvetsariya va Finlandiyada esa jarima tizimini belgilashda milyarderlarga nisbatan ko'proq belgilash tamoyili

ilgari suriladi. Buyuk Britaniyada jarimani toifalarga bo'lgan holda ijroga qaratadi (A toifa-eng yengil, E toifa-eng og'ir). Eng qizig'i shundaki, jarimani to'lash uchun shaxsga qulay muddat beriladi va uni undirish xususiy kompaniyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, bugungi zamonaviy jamiyatda jarima jazosi ko'proq ijtimoiy va moddiy ahvoli yaxshiroq bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga mos va xos desak to'g'ri bo'ladi. Yoki sudlarimiz jazoni tayinlashda shaxsning oilaviy va moddiy ahvolini chuqur o'rganib chiqqandan so'ng jarima jazosini belgilash kerak deb o'ylayman. Chunki jarima jazosini qo'llash orqali jamiyatda, davlatga va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan salbiy fikrda bo'lgan shaxslarning qamrovi kengayib ketishining oldini olgan bo'lamiz. Shu nuqtaiy nazardan bugungi qonunchiligimizda mavjud bo'lgan jarima jazosining roli, davlatimizning kelajakda yuksalishi uchun ham katta ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jarima jazosi bevosita davlat daromadiga (budget) undiriladi va bu jazo qamoqxona mahbuslari kabi ko'p xarajat talab etilmaydi, jarima tariqasidagi jazo turini qo'llaydi va xarajatlardan qutulib budgetga ma'lum miqdorda pul mablag'i tushiradi. Aynan jarima jazosining sud tomonidan tayinlanishi davomida jabrlanuvchining shaxsini hisobga olib, jarimani bo'lib-bo'lib to'lash shartlarni ko'proq ijroga qaratishi kerak deb o'ylayman. Chunki, jarimani darhol ijroga qaratish mahkumning oila azolarining moddiy ahvolini yomonlashuviga olib keladi va shu bilan birga oilada ziddiyatlar keltirib chiqaradi hattoki, bu oilaviy ajrimlarga ham sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
2. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi
3. Jinoyat-ijroiya huquqi Darslik-2022; Mualiflar jamoasi; I. Ismoilov, Q. R. Abdurasulovlar. Toshkent: O'z Res IIV Akademiyasi 46, 47, 48, 49, 50-betlar
4. Sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarni ijro etish to'g'risidagi qonun

Internet saytlari;

5. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/09/25/singapore/>
6. <https://yuz.uz/uz/news/mualliflik-huquqini-buzganlik-uchun-qayerda-qanday-jazo-choralari-koriladi>
7. <https://chatgpt.com/>